



XIZMATLAR SOHASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-iyun


Raqamlar:

- 2018 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 1978,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlar o'sish sur'ati 130,7 % ni tashkil qildi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1070,6 ming.so'mni tashkil etdi.


“2016 – 2020 yillarda xizmatlar sohasining rivojlantirish dasturi”ni amalga oshirilishi natijasida, 2018-yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 1978,4 mlrd.so'mni tashkil etib,o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 % ga o'sdi.

Moliyaviy faoliyatni takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, texnik hamda texnologik yangilashlar natijasida hisobot davrida eng yuqori o'sish sur'atlariga moliyaviy xizmatlar bo'yicha 30,7 % ga; me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar bo'yicha 20,0 % ga ; aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha 14,9 % ga; yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha 10,4 % ga; ijara xizmatlari bo'yicha 10,2 % ga erishildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



- | | | | |
|----------|---------------------------------------|-----------|--|
| 1 | Xizmatlar - jami | 8 | Ta'lim sohasidagi xizmatlar |
| 2 | Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 9 | Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar |
| 3 | Moliyaviy xizmatlar | 10 | Ijara xizmatlari |
| 4 | Transport xizmatlari | 11 | Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar |
| 5 | Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 12 | Shaxsiy xizmatlar |
| 6 | Savdo xizmatlari | 13 | Me'morchilik sohasidagi xizmatlar |
| 7 | Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 14 | Boshqa xizmatlar |


2018 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (30,7 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (20,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (14,9 %), kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining ulushi, %**

Transport xizmatlari	27,5%
Savdo xizmatlari	26,4%
Moliyaviy xizmatlar	12,5 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8,2%
Shaxsiy xizmatlar	4,3 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	3,6 %
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3,5%
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3,4 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,2 %
Boshqa xizmatlar	2,8 %
Ijara xizmatlari	2,3 %
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	1,2 %
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,1 %

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport xizmatlari (jami xizmatlarning 27,5 %) shu jumladan: avtotransport xizmatlari (16,3 %), savdo xizmatlari (26,4%), moliyaviy xizmatlar (12,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mln.so'm**



Qoraqalpog'iston Respublikasida 2018 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan umumiy xizmatlarning hajmi 1978428,3 mln.so'mni tashkil etgan.

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi transport xizmatlari (544069,3 mln.so'm), savdo xizmatlari (521956,8 mln.so'm), moliyaviy xizmatlar (247614,9 mln.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (161301,4 mln.so'm) bo'yicha kuzatildi.


**2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mln.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qoraqalpogiston Respublikasi	1978428,3	106,4
Nukus sh.	1022149,7	109,4
Amudaryo	79650,9	102,0
Beruniy	82496,5	102,1
Qorao'zak	24958,6	106,8
Kegeyli	29407,2	101,1
Qo'ng'iro't	305913,5	101,2
Qanliko'l	24362,0	103,1
Mo'ynoq	12362,5	101,3
Nukus	26408,4	102,8
Taxiatosh	18441,8	106,7
Taxtakop'ir	24242,2	101,4
To'rtko'l	96008,1	103,9
Xo'jayli	105372,8	112,2
Chimboy	42983,6	105,6
Shumanay	22831,9	102,2
Ellikkala	60838,6	102,4


Hududlar o'rtasida eng katta hajm Nukus sh. (1022149,7 mln.so'm), Qo'ng'iro't (305913,5 mln.so'm), Xo'jayli (105372,8 mln.so'm), To'rtko'l (96008,1 mln.so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Mo'ynoq (12362,5 mln.so'm) va Taxiatosh (18441,8 mln.so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.

2018 yil yanvar-iyun oylarida respublika bo'yicha jami
xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da



2018 yil yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari (ming so'mda)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichlari Nukus sh. (3276,1 ming so'm) va Qo'ng'iro't (2450,0 ming so'm) ni tashkil etgan.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmining eng past ko'rsatkichi Taxiato'sh (255,8 ming so'm) va Kegeyli (330,4 ming so'm)ga to'g'ri kelgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi
statistika boshqarmasi
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: **B. Tajibekov**
(71)230-82-15